

aloqador negiz asosida yuzaga keladi. Bu fikrning isboti sifatida biz, fermer xo'jaliklarga qo'yilgan ergonimlarni tahlil qilishimiz mumkin.

Ergonimlarni tuzilishiga ko'ra, shartli ravishda sodda shakl tipidagi va murakkab shakldagi ergonimlarga ajratish mumkin.

Sodda shakldagi ergonimlarga quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: "O'zbek" – turdosh ot asosida, tub so'z, "Yomg'ir" – turdosh ot asosida, tub so'z, "To'lqinbek" – shaxs nomi asosidagi atoqli ot, "Olov" – turdosh ot asosida, tub so'z, "Ulug'bek" – shaxs nomi asosidagi atoqli ot, "Yo'lchi" – turdosh otning atoqli otga ko'chishi asosida, "Bo'ston" – turdosh ot asosida, "Bog'dor" – turdosh ot asosidagi yasama so'z, "Istiqol" – turdosh ot asosida, "Al Arab" – turdosh ot asosidagi tub so'z, "Shahlo" – sifat turkumidan atoqli otga ko'chgan, shaxs oti asosidagi tub so'zlar kabi fermer xo'jalik nomlari sodda shakldagi ergonim tiplariga misol bo'la oladi.

"Hazorasp sharq darvozasi" – ot+ot+ot qolipidagi qo'shma ot, "Orol bo'yi" – ot+ot qolipidagi qo'shma ot, "Qizilqum" – sifat+ot qolipidagi qo'shma ot, "Oq maydon havaskori" – sifat+ot+ot qolipidagi qo'shma ot, "Botir paykom va o'g'illari" – ot, "Pichoqchi saxovati", "Bog'ieram pichoqchi", "Hazorasp chashmasi", "Tuyamo'yun paxta", "Pitnak ochil", "Nur tuproq", "Semurg' Tuproqqal'a", "Jaloladdin O'rinboy", "Nodir Ergash Barno", "Masharip Davron", "Yakka chiqir Asalxon" kabilar murakkab shakl tipidagi ergonimlar hisoblanadi.

Xullas, o'zbek tilining ergonomik ko'lami nihoyatda murakkab va keng hajmli tushuncha sanaladi. O'zbek tilidagi barcha makroko'lam, mikroko'lam va ko'lamchalarga kiruvchi atoqli ot materiallarini sinchiklab to'plash, ularning nominativ, motivatsion, funksional xususiyatlarini tadqiq qilish o'zbek ergonimlarining dolzarb muammolaridan biridir. Bunday keng ko'lamli tadqiqot ergonomika sohasi uchun faqat nazariy emas, balki ulkan amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki bunday ilmiy ishning natijalari tilimiz lug'at boyligining g'oyat murakkab va serqirraligini namoyish qiladi, tabiiy-jug'rofiy obyektlarni nomlash ishini ilmiy asoslarda olib borishga yaqindan yordam beradi, o'zbek xalqi tarixi, madaniyati, ma'naviyati hamda tilining teran ildizlarini chuqurroq anglab yetishimiz uchun boy material manbayi bo'lib xizmat qiladi.

Laylo Xusainova (Lingvistika o'zbek tili mutaxassisligi 2-kurs talabasi) **ONOMASTIKAGA UMUMIY TAVSIF**

Dastlab, onomastika bo'yicha qaysi tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borganligi haqida qisqacha to'xtalib o'tmoqchimiz. Tilshunos olimlar ham toponimika, antroponimika bilan shug'ullanmoqdalar. Bir qancha kishilar toponimlarni lingvistik jihatdan o'rgandilar, chunonchi, Sh. Qodirova Toshkent toponimiyasi, Z.Do'simov Shimoliy Xorazm toponimlari, J.Latipov Marg'ilon toponimiyasi, T.Rahmatov Samarqand toponimiyasi, Y.Xo'jamberdiyev Surxondaryo joy nomlari to'g'risida ilmiy ishlar olib bordilar. Keyingi yillarda muhim toponimik tadqiqotlardan biri S.Gubayevaning "Farg'ona vodiysi toponimiyasida etnonimlar" nomzodlik dissertatsiyadir (1973). S.Gubayeva Farg'ona vodiysining O'zbekistonga qarashli qismida ham turli qabilaurug' nomlari, jumladan, qirg'iz, qipchoq urug' nomlari bilan atalgan toponimlar ko'p ekanligi isbot qildi.

Onomastika (yun. onomastike – nomlash, nom qo'yish san'ati) – tilshunoslikning har qanday atoqli nomlarini, ularning paydo bo'lish va o'zgarish tarixini o'rganuvchi bo'limi, shuningdek, barcha atoqli nomlar yig'indisi. Ayrim tadqiqotlarda onomastika termini antroponimika ma'nosida ham qo'llangan. Onomastika mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o'rganish maqsad qilib qo'yadi. Onomastika atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga muvofiq quyidagi bo'limlardan iborat:

- antroponomika kishilarning atoqli nomlarini;
- toponimika – geografik obyektlarning atoqli nomlarini;

- teonimika – turli diniy tasavvurlar bo'yicha xudolar, ma'budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlarini;
- zoonimika – hayvonlarga qo'yilgan atoqli nomlarni;
- kosmonimika – fazoviy bo'shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlarini;
- astronomika – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar)ning nomlarini o'rganadi.

Onomastikaning atoqli nomlarini realionimlar avval yoki hozir mavjud bo'lgan obyektlarning nomlari va mifonimlar (xayoliy – to'qima obyektlarning nomlari)ga bo'ladi. O'zbek onomastikasi sohasining paydo bo'lishi shakllanishi va rivoji o'tgan asrning 60-yillarida o'zbek tilshunosligining tadqiq doirasi ancha kengaydi va uni an'anaviy grammatika, leksikologiya, semasiologiya sohalaridan o'z maqsad va vazifalariga ko'ra farqlanuvchi yangi yo'nalishlar paydo bo'la boshladi. Mana shu davrda paydo bo'lgan rivojlanishga yuz tutgan yangi yo'nalishlardan birini o'zbek onomastikasi tashkil qiladi.

Ma'lumki, atoqli otlarga qiziqish o'tmishda ham bo'lgan. Kishi ismlari joy nomlarining paydo bo'lishi, etnografiyasi ma'no va etimologiyasi haqida tarixiy yozma manbalarda anchagina qiziqarli fikrlar mavjud. O'zbek tilshunosligida onomastik tadqiqotlar ko'lamining kengaya borishi bu ilmiy sohaning rivoji shakllanishi va ravnaq topishiga olib keldi. O'tgan davr davomida o'zbek ismlari va toponimlarini o'rganishga bag'ishlangan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi, o'nlab monografiya, to'plam va risolalar, ko'pgina maqolalar e'lon qilindi. Bularning barchasi o'zbek onomastikasi hozirda tilshunoslikning rivoj topgan o'ziga xos ilmiy yo'nalishi ekanidan dalolat beradi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, kishi atoqli toponimlari va etnonimiyasiga munosabat tubdan o'zgardi. O'zbek nomshunosligining paydo bo'lishi va zamonaviy ilmiy soha sifatida shakllanishi bu sohaning o'ziga xos ilmiy terminologiyasining yaratilishi hamda uning rivoji va takomiliga sabab bo'ldi. Atoqli ot materiallarini sistemali va izchil ravishda to'plash ularni ilmiy asoslarda keng ko'lamda tahlil qilish o'zbek filologiyasida o'tgan asrning 60-yillaridan boshlandi.

Bu boradagi ilk qadamlar H.Hasanov T.Nafasov E.Begmatovlarning tadqiqotlarida o'z ifodasini topdi. Onomastika juda qiziqarli soha, uning tadqiq qilgan sari yangi qirralari ochilib boraveradi. Yer planetamizga ham yer tili sifatida atab nom berishgan bu nomlar insoniyat nom bergan g'oyalardir Ilohiyat orqali. Onomastika sohasining rivoji taraqqiyoti tarixi haqida gap ketganda shuni aytish o'rinliki, bu soha qiziqarli va mutaxassislarni izlanishga undaydi.

Adolat Allaberganova (lingvistika o'zbek tili mutaxassisligi 2-kurs talabasi)

ONA TILI DARSALARIDA ONOMASTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

Umumta'lim maktablarida ta'lim jarayonida nihoyatda ko'p atoqli otlarga duch kelamiz. Jumladan, adabiyot, tarix, geografiya va boshqa qator fanlar borki, ularda atoqli otlar ko'p qo'llanganligining guvohi bo'lamiz. Darslikda uchragan atoqli otlarni o'rganmasdan, ularning mohiyati, ijtimoiy hayot, fan va texnikada tutgan o'rnini o'quvchilarga tushuntirmasdan, ular haqida ma'lumot bermasdan o'tish ta'lim jarayonining susayishiga olib keladi.

Jamiyat hayotida nomsiz bir narsani ikkinchi bir narsadan farqlab bo'lmaydi. Nomlar insonlar uchun ayrim ko'rsatish vazifasidir. Obyektlarni nomlash va nomlarni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy xarakterdagi ishlarni mustaqillik davri talablariga moslashtirish, zarur o'rinlarda ilmiy hamda ilmiy-ommaviy shakldagi tushuntirish ishlarini keng ko'lamda, ya'ni maktab va oliy o'quv yurtlari auditoriyalarida, korxona, tashkilot, turli kompaniya, jamoat joylarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. To'plangan onomastik materiallardan dars jarayonida foydalanish borasida ona tili boy imkoniyatlarga ega. Fanni o'rganish jarayonida ko'pgina antroponim, toponim, gidronim, etnonimlarga duch kelamiz.

Ona tili darslarida qo'shimcha material sifatida onomastik materiallardan foydalanish mumkin. Darslikdagi mavzularni o'rganish mobaynida joy nomlari, daryo nomlari, kishi nomlari